

- I. Umumiy qoidalar  
II. Jamiyat boshqaruv va nazorat organlari ma'lumotining (hisoboti) shakl va mazmuni.  
1-§. Ijroiya organining hisoboti  
2-§. Kuzatuv kengashining hisoboti  
3-§. Taftish komissiyasining hisoboti  
III. Yakunlovchi qoidalar

**«DEHQONOBOD KALIY ZAVODI» AJning  
boshqaruv va nazorat organlari hisobotlariga doir talablar to'g'risidagi  
NIZOM**

{ 1 }

**I. UMUMIY QOIDALAR**

1. «DEHQONOBOD KALIY ZAVODI» AJning boshqaruv va nazorat organlari hisobotlariga doir talablar to'g'risidagi mazkur NIZOM (keyingi o'rinlarda – Nizom deb ataladi), O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha komissiya majlisining 2015-yil 31-dekabrda 9-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi, «DEHQONOBOD KALIY ZAVODI» AJning (keyingi o'rinlarda Jamiyat deb ataladi) Ustavi va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hisob beruvchi Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlarining ma'lumotlarining (hisobotlarining) shakli va mazmuniga doir talablarni belgilaydi.

3. Nizom Jamiyatning aksiyadorlariga boshqaruv va nazorat organlarining hisobotlarini taqdim etish mexanizmini tatbiq qilish va Jamiyat faoliyatini boshqarishning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

4. Mazkur Nizomning talablari Jamiyatning boshqaruv va nazorat organlariga (Kuzatuv kengashi, Ijroiya organi, Taftish komissiyasi) qo'llaniladi.

**II. JAMIYAT BOSHQARUV VA NAZORAT ORGANLARINING MA'LUMOTINING  
(HISOBOTINING) SHAKLI VA MAZMUNI.**

**1-§. Ijroiya organining hisoboti**

**2-§. Kuzatuv organining hisoboti**

**3-§. Taftish komissiyasining hisoboti**

**1-§. IJROIYA ORGANINING HISOBOTI**

5. Ijroiya organi Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida Kuzatuv kengashi oldida har chorakda va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida har yili hisob beradi.

6. Ijroiya organining har chorakdagi hisoboti hisobot davri yakunlari bo'yicha quyidagi axborotlarni tashkil qiladi:

Jamiyatning joriy ishlab chiqarish faoliyati to'g'risida;  
-moliya-xo'jalik faoliyati, biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, shu jumladan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari;

- aksiyadorlarning umumiy soni;
- yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar;
- kapital va aylanma mablag'larning miqdori va tarkibi;
- Jamiyatning moliyaviy qo'yilmalari (mablag'lari);
- debitor qarzdorlik miqdori to'g'risidagi ma'lumot;
- hisobot va o'tgan davr yakunlari bo'yicha qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadni to'lash bilan bog'liq mavjud qarzdorlik;

- "Axborot siyosati to'g'risidagi Nizom", "Dividend siyosati to'g'risidagi Nizom", "Ichki nazorat to'g'risidagi Nizom", "Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakatlar tartibi to'g'risidagi Nizom" talablarining bajarilishi to'g'risida;

- bo'sh shtat birliklarini malakaviy kadrlar bilan to'ldirish, shuningdek Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan choralar to'g'risida.

7. Jamiyat ijroiya organining hisoboti har yili aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida tinglanadi va Jamiyat to'g'risidagi quyidagi axborotlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Jamiyatning ijroiya organi rahbarining murojaatnomasi;

{ 3 }

{ 2 }

2) joriy ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyat to'g'risidagi axborot;

3) hududiy siyosat;

4) kadrlar siyosati;

5) ijtimoiy siyosat;

6) Jamiyat faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar;

7) Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlari.

8. Ijroiya organi rahbarining murojaatnomasi Jamiyatni tashkil qilish va rivojlantirish, joriy ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyati, Jamiyatning o'rtacha muddatli va uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyasiga erishish choralarini, Jamiyatning yutuqlari va ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi qisqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

9. Joriy ishlab chiqarish va moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi axborot quyidagi axborotlarni o'z ichiga oladi:

- ishlab chiqarish faoliyati;
- moliya-xo'jalik faoliyati, biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, shu jumladan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari;
- yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar;
- kapital va aylanma mablag'larning miqdori va tarkibi;
- Jamiyatning moliyaviy qo'yilmalari;
- debitor qarzdorlik to'g'risidagi ma'lumot;
- hisobot yilida qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan daromadlarning hajmi, shu jumladan har bir qimmatli qog'oz bo'yicha so'mda bitta qimmatli qog'oz uchun va bitta qimmatli qog'oz nominal qiymatiga foizlarda;

- hisobot yilida qo'shimcha chiqarilgan qimmatli qog'ozlar to'g'risida asosiy ma'lumotlar;

- hisobot va o'tgan davr natijalari bo'yicha qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadni to'lash bo'yicha mavjud qarzdorlik;

- Jamiyatning barcha xodimlari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan, uning vakolat doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha tasdiqlangan ichki normativ hujjatlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlar to'g'risida;

- auditorlik tekshiruvining natijasi va auditorlik tashkilotining xulosasi to'g'risida;

- ilmiy-texnik rivojlanish sohasida, litsenziya va patentlar, yangi ishlanmalar va tadqiqotlar bo'yicha emitentning siyosati va harajatlari to'g'risida;

10. Hududiy siyosat to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:  
- filiallar bilan ishlash to'g'risida;

- sho'ba xo'jalik jamiyatlari bilan ishlash to'g'risida;

- boshqa tarkibiy bo'linmalar bilan ishlash to'g'risida.

11. Kadrlar siyosati to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:  
- bo'sh shtat birliklarini malakaviy kadrlar bilan to'ldirish;

- Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan choralar to'g'risida;

- qonun hujjatlarida muvofiq Jamiyat xodimlariga qo'llanilgan intizomiy choralar, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomiga rioya qilinishini ta'minlash to'g'risida;

- Jamiyat xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha choralar to'g'risida.

12. Korporativ boshqaruv bo'yicha axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:  
- qonun hujjatlari talablari va korporativ boshqaruv Kodeksi tavsiyalariga muvofiq axborotni oshkor qilish;

- Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi yoki ijroiya organi tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risida;

{ 4 }

- "Axborot siyosati to'g'risidagi Nizom", "Dividend siyosati to'g'risidagi Nizom", "Ichki nazorat to'g'risidagi Nizom", "Manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakatlar tartibi to'g'risidagi Nizom" talablarining bajarilishi to'g'risida;
- aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan axborotni olish, aksiyadorlarning umumiy yig'ili shida ishtirok etish va dividend to'lash bo'yicha huquqlariga rioya etilishi to'g'risida;
- hisobot yilida Jamiyat faoliyatidagi asosiy korporativ hodisalar, muhim faktlar to'g'risida;
- boshqaruv va nazorat organlarining aksiyadorlar va investorlar bilan o'zaro hamkorligi to'g'risida;
- 13. Ijtimoiy siyosat to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - Jamiyat xodimlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini amalga oshirish bo'yicha choralar to'g'risida;
  - o'tkazilgan xayriya tadbirlari to'g'risida.
- 14. Jamiyat faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - asosiy faoliyat sohasidagi rivojlanish istiqbollarning tahlili;
  - uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
  - mehnat ishlab chiqarilishining va mahsulot raqobatbardoshligining oshishi;
  - ishlab chiqarish, eksport va energiya samaradorligi ko'rsatkichlarining o'sishi;
  - ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilanishini amalga oshirish va natijada aksiyalar narxining oshishi;
  - xorijiy tajribada muvaffaqiyatli aprobatsiya qilingan boshqaruv usullarini, shu jumladan SWOT, GAP, tahlil va boshqa yondashishlar, maxsus dasturiy mahsulotlarni qo'llash bo'yicha;
  - Jamiyatda qabul qilingan har bir rivojlanish rejalarida belgilangan maqsadlarga erishish monitoringini amalga oshirishga yo'l qo'yuvchi zarur miqdor va sifat me'zonlarini tatbiq qilish bo'yicha.
- 15. Jamiyatning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - aksiyadorlik jamiyatining sohaga oid xususiyati, raqobat muhitining tahlili, eksportga yo'naltirishni ta'minlash va tegishli tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan davlat dasturlarini amalga oshirishdan kelib chiqib 5 yildan oshiq muddatga uzoq muddatli strategiyasi asosida ishlab chiqilgan ustuvor yo'nalishlar to'g'risida ma'lumot.
- 16. Ijroiya organining hisoboti asosida "Qimmatli qog'ozlar bozorida axborotni taqdim etish va chop etish Tartibi" (31.07.2012-y. 2383-son ro'yxatga olingan) talablariga muvofiq shakl bo'yicha Jamiyatning yillik hisoboti tayyorlanadi.
- 17. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi va Jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishining o'tkazilish sanasiga qadar 10 kundan kechiktirmay dastlabki tasdiqlanadi.
- 18. Yillik hisobot aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanganidan so'ng raqamlanadi, tikiladi va Jamiyatda saqlanadi.

## 2-§. KUZATUV KENGASHINING HISOBOTI

- 19. Jamiyatning Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishiga har yili Jamiyatni boshqarish va korporativ qonun hujjatlari talablariga rioya qilinishi to'g'risida hisobot taqdim qiladi.
- 20. Kuzatuv kengashining hisoboti quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:
  - 1) boshqaruv va nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida;
  - 2) Kuzatuv kengashi qo'mitalari bilan ishlash to'g'risida;
  - 3) ichki nazorat to'g'risida;

{ 5 }

- Jamiyatda qabul qilingan har bir rivojlanish rejalarida belgilangan maqsadlarga erishish monitoringini amalga oshirishga yo'l qo'yuvchi zarur miqdor va sifat me'zonlarini tatbiq qilish bo'yicha.

- 25. Jamiyatning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - sohaga oid xususiyat, raqobat muhitining tahlili, eksportga yo'naltirishni ta'minlash va tegishli tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan davlat dasturlarini amalga oshirishdan kelib chiqib 5 yildan oshiq muddatga aksiyadorlik jamiyatini uzoq muddatli strategiyasi asosida ishlab chiqilgan ustuvor yo'nalishlar to'g'risida ma'lumot.

## 3-§. TAFTISH KOMISSIYASINING HISOBOTI

- 26. Jamiyatning taftish komissiyasi aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilgunga qadar 10 kundan kechiktirmay Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha hisobotni taqdim etadi.
- 27. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha hisoboti quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:
  - a) hisobotlar va jamiyatning boshqa moliyaviy hujjatlardagi aks etgan ma'lumotlarning to'g'riligini baholash, shu jumladan quyidagi natijalar:
    - Jamiyatning moliyaviy hujjatlarini tekshirish, mol-mulkin inventarizatsiyadan o'tkazish, mazkur hujjatlarining birlamchi buxgalterlik hisobi ma'lumotlariga muvofiqligi;
    - Buxgalterlik va statistik hisob yuritishning mavjud me'yoriy nizomlarga muvofiqligi tahlili;
    - Jamiyat balansining, soliq inspeksiyasi, statistika organlari, davlat boshqaruv organlariga hisobot hujjatlari yuritilishining to'g'riligini tekshirish;
    - Jamiyat nomidan tuzilgan shartnomalar, amalga oshirilgan bitimlar, kontragentlar bilan hisobotning qonuniyligini tekshirish;
    - Moliya-xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatida belgilangan normativ va qoidalarning rioya qilinishini tekshirish;
  - b) Jamiyatning moliyaviy ahvoli, uning to'lov qobiliyati, aktivlarining likvidligi, shaxsiy va qarz mablag'larining o'zaro nisbatini tahlil qilish;
  - v) mahsulot va xizmatlar yetkazib beruvchilar tomonidan to'lovlarni byudjetga o'tkazishning, dividend bo'yicha, obligatsiyalar bo'yicha foizlarni hisoblash va to'lashning, boshqa majburiyatlar bo'yicha to'lovlarning o'z vaqtidagi va to'g'riligi;
  - g) Jamiyatning boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'g'riligi, ularning Jamiyat Ustaviga va amaldagi qonun hujjatlari me'yorlariga muvofiqligi;
  - d) buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibining, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlarining buzilish faktlari to'g'risida axborot.
- 28. Taftish komissiyasining xulosasi (hisoboti)da jamiyatda affilangan shaxslar bilan va yirik bitimlarning mavjudligi, shuningdek har chorakda Jamiyat kuzatuv kengashining yig'ilishiga kiritilgan mazkur bitimlarni amalga oshirishga doir qonun hujjatlari va jamiyat ichki hujjatlarining talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi axborot ko'rsatiladi.
- 29. Taftish komissiyasining xulosasi (hisobotiga) quyidagi takliflar va tavsiyalar kiritilishi shart:
  - a) tekshiruv natijasida aniqlangan kamchiliklar va buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobotni taqdim qilish tartibining buzilishini bartaraf etish bo'yicha;
  - b) moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish vaqtida qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yan aybdor shaxslar bo'yicha choralar qo'llash to'g'risida;

{ 7 }

- 4) Jamiyatning korporativ boshqaruvini yaxshilash bo'yicha takliflar;
- 5) Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash.
- 21. Boshqaruv va nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - boshqaruv va nazorat organlarining ish rejalarini ishlab chiqilishi to'g'risida;
  - Jamiyatning strategiyasini ijrosi bo'yicha nazorat to'g'risida;
  - Jamiyat tomonidan Korporativ kodeks normalariga rioya qilinayotganligi, shu jumladan Kodeks tavsiyalariga asosan ishlab chiqilgan "Axborot siyosati to'g'risida"gi, "Dividend siyosati to'g'risida"gi, "Manfaatlar to'qnashuvida harakat qilish to'g'risida"gi Nizomlar va boshqa ichki hujjatlariga;
  - Jamiyatning tashkiliy tuzilmasi qonunchilik talablariga muvofiqligi bo'yicha muntazam ravishda muvofiqlashtirilayotganligi to'g'risida;
  - Jamiyatning rahbar lavozimlariga tanlov o'tkazish reglamentiga muvofiq horijiy menejerlarini ishtirok etish imkoniyatini hisobga olib har yili o'tkazilgan tanlovlar to'g'risida;
  - moliyaviy hisobotlarni MHHSga muvofiq chop qilinishiga o'tishni ta'minlashni muvofiqlashtirish to'g'risida;
  - boshqaruv organi a'zolarini malakasini oshirish to'g'risida;
- 22. Kuzatuv kengashi qo'mitasining ishlari to'g'risidagi axborot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:
  - Jamiyat Kuzatuv kengashi qoshidagi tegishli masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruh)ning faoliyati to'g'risida;
  - ularning yig'ilishining davriyligi va ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning natijalari to'g'risida.
- 23. Ichki nazorat to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga oladi:
  - Jamiyatning yillik biznes rejasining, shu jumladan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarining bajarilishi to'g'risida ijroiya organining hisobotlari to'g'risida axborot;
  - Ichki audit xizmatining faoliyati to'g'risidagi axborot, shu jumladan uning xodimlarini tayinlash (attestatsiyadan o'tkazish), shuningdek hisobotlarni har chorakda tinglash;
  - korporativ maslahatchining faoliyati to'g'risida axborot;
  - nazorat organlari a'zolarining malakasini oshirish to'g'risida;
  - Jamiyatda yirik bitimlar va affilangan shaxslar bilan bitimlarning mavjudligi, yirik bitimlar va affilangan shaxslar bilan bitimlar bo'yicha qabul qilingan qarorlar to'g'risida Jamiyat taftish komissiyasining xulosalarini ko'rib chiqish to'g'risida;
  - auditorlik tekshiruvini o'tkazish, auditorlik tashkilotini va uning xizmatlari to'lov miqdorining chegaralarini belgilash to'g'risida;
  - Jamiyatdagi ichki nazoratning ahvoli to'g'risida auditorlik tashkilotining xulosasi;
  - "Ichki nazorat to'g'risidagi Nizom" talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi axborot.
- 24. Jamiyat faoliyatini rivojlantirish to'g'risidagi axborot quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:
  - asosiy faoliyat sohasida rivojlanish istiqbollarning tahlili;
  - uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
  - mehnat ishlab chiqarilishining va mahsulot raqobatbardoshligining oshishi;
  - ishlab chiqarish, eksport va energiya samaradorligi ko'rsatkichlarining o'sishi;
  - ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilanishini amalga oshirish, va natijada aksiyalar narxining oshishi;
  - xorijiy tajribada muvaffaqiyatli aprobatsiya qilingan boshqaruv usullarini, shu jumladan SWOT, GAP, tahlil va boshqa yondashishlar, maxsus dasturiy mahsulotlarni qo'llash bo'yicha;

{ 6 }

- v) Jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo'yicha;
- g) qonun hujjatlariga muvofiq Jamiyat Ustaviga, boshqa ichki hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida.

## III. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

- 30. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur Nizom va qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan boshqaruv va nazorat organlarining boshqa hisobotlari ham ko'riladi.
- 31. Jamiyat boshqaruv va nazorat organlarining boshqa hisobotlariga quyidagilar kiradi:
  - a) Jamiyat ijroiya organining tarkibiy bo'linmalari rahbarlarining hisobotlari;
  - b) Jamiyat Kuzatuv kengashi qoshida tashkil etilgan qo'mita raislarining hisobotlari;
  - v) Jamiyat ichki audit xizmatining hisobotlari;
  - g) Jamiyat tashqi auditorining hisobotlari;
  - d) minoritar aksiyadorlar qo'mitasi raisining hisobotlari.
- 32. Mazkur Nizom, shuningdek unga o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.
- 33. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, Jamiyat auditori, Jamiyat taftish komissiyasi, Jamiyat ijroiya organining taklifi bo'yicha kiritiladi.
- 34. Agar qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlariga o'zgartirishlar natijasida mazkur Nizomning alohida moddalari ularga zid kelsa, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va Nizomga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlariga amal qiladi.

{ 8 }